

# A COMPARATIVE STUDY OF SEMANTIC EXTENSION IN THE KOREAN VERB 먹다 AND THE UZBEK VERB yemoq

Absalomov Mirolim Sharif ugli

Uzbekistan State World Languages University

Head of the Department of Korean Philology,

Senior Lecturer, PhD, Tashkent, Uzbekistan

**Abstract.** This article presents a comparative analysis of the lexical-semantic features of the Korean verb 먹다 and the Uzbek verb yemoq, their place in the system of polysemy, and the main directions of their semantic extension. The study treats the primary meaning of both verbs, related to food consumption, as the semantic core and analyzes the psychological, social, physical, and phraseological meanings derived from it. The use of the Korean verb 먹다 in expressions such as 마음을 먹다 “to make up one’s mind,” 나이를 먹다 “to grow older,” 욕을 먹다 “to be criticized,” 칼이 먹다 “to cut well,” and 써먹다 “to make use of,” as well as Uzbek expressions such as gap yemoq “to receive a reprimand,” tayoq yemoq “to be beaten,” haqqini yemoq “to appropriate someone’s share,” azob yemoq “to suffer,” and zang yemoq “to become rusty,” is explained on the basis of mechanisms of semantic transfer. The article also highlights the common features of the two languages, along with their national and cultural differences, lexicographic interpretations, and subtle semantic distinctions that arise in translation.

**Keywords:** 먹다, yemoq, polysemy, semantic extension, comparative semantics, cognitive linguistics, phraseological unit, Korean language, Uzbek language.

# СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ СЕМАНТИЧЕСКОГО РАСШИРЕНИЯ ГЛАГОЛОВ «먹다» В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ И «ЕСТЬ» В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

**Абсаломов Миролим Шариф угли**

Узбекский государственный университет мировых языков

Заведующий кафедрой корейской филологии, старший преподаватель, PhD

Ташкент, Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье в сопоставительном аспекте анализируются лексико-семантические особенности глагола «먹다» в корейском языке и глагола «есть» в узбекском языке, их место в системе многозначности, а также направления семантического расширения. В исследовании первичное значение обоих глаголов, связанное с употреблением пищи, рассматривается как семантический центр, на основе которого анализируются производные психологические, социальные, физические и фразеологические расширения. Употребления корейского глагола «먹다» в выражениях «마음을 먹다» – «принять решение», «나이를 먹다» – «становиться старше», «욕을 먹다» – «получать брань», «칼이 먹다» – «нож хорошо режет», «써먹다» – «использовать», а также такие единицы узбекского языка, как «получить выговор», «получить побои», «присвоить чью-либо долю», «терпеть страдания», «покрыться ржавчиной», объясняются на основе механизмов семантического переноса. В статье освещаются как общие черты двух языков, так и национально-культурные различия, лексикографические трактовки и тонкие смысловые различия, возникающие в процессе перевода.

**Ключевые слова:** 먹다, есть, многозначность, полисемия, семантическое расширение, сопоставительная семантика, когнитивная лингвистика, фразеологизм, корейский язык, узбекский язык.

# KOREYS TILIDAGI ‘떡다’ VA O‘ZBEK TILIDAGI “YEMOQ” FE’LLARINING MA’NO KENGAYISHINI QIYOSIY O‘RGANISH

*Absalomov Mirolim Sharif o‘g‘li*  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*  
*Koreys filologiyasi kafedrasini mudiri, katta o‘qituvchi, PhD,*  
*Toshkent, O‘zbekiston*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada koreys tilidagi “떡다” va o‘zbek tilidagi “yemoq” fe’llarining lug‘aviy-semantik xususiyatlari, ularning ko‘p ma’nolilik tizimidagi o‘rni hamda ma’no kengayish yo‘nalishlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki fe’lning dastlabki, ya’ni oziq-ovqatni iste’mol qilishga doir asosiy ma’nosi semantik markaz sifatida olinib, undan kelib chiqqan psixologik, ijtimoiy, jismoniy va frazeologik kengayishlar ko‘rib chiqiladi. Koreys tilidagi ‘떡다’ fe’lining ‘마음을 떡다’, ‘나이를 떡다’, ‘욕을 떡다’, ‘칼이 떡다’, ‘썩떡다’ kabi qo‘llanishlari hamda o‘zbek tilidagi “gap yemoq”, “tayoq yemoq”, “haqqini yemoq”, “azob yemoq”, “zang yemoq” singari birliklar semantik ko‘chish mexanizmlari asosida izohlanadi. Maqolada ikki til o‘rtasidagi umumiyliklar bilan birga, milliy-madaniy tafovutlar, leksikografik talqinlar va tarjima jarayonida yuzaga keladigan nozik farqlar ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: 떡다, yemoq, ko‘p ma’nolilik, polisemiya, ma’no kengayishi, qiyosiy semantika, kognitiv tilshunoslik, frazeologizm, koreys tili, o‘zbek tili.

## Kirish

Tilning lug‘aviy tarkibi doimiy ravishda harakatda bo‘lib, undagi birliklar inson tajribasi, madaniy muhit va ijtimoiy ehtiyojlar asosida yangi ma’no qatlamlari bilan boyib boradi. Ayniqsa kundalik nutqda faol qo‘llanadigan fe’llar ko‘p ma’nolilikka juda moyil bo‘ladi. Chunki fe’l nafaqat harakatni, balki holat,

munosabat, baho, ruhiy kechinma va ijtimoiy jarayonlarni ham ifodalash imkoniyatiga ega. Koreys tilidagi “떡다” hamda o‘zbek tilidagi “yemoq” fe’llari ana shunday semantik faol birliklar qatoriga kiradi.

Mazkur ikki fe’lning asosiy ma’nosi oziq-ovqatni og‘iz orqali qabul qilish, iste’mol qilish harakati bilan bog‘liq. Biroq real nutqda ularning vazifasi bu chegarada qolib ketmaydi. ‘떡다’ koreys tilida ovqat yeyishdan tashqari, niyat qilish, yoshga to‘lish, tanqidga uchrash, foyda olish, zarar ko‘rish, biror moddaning singishi yoki vositaning ishlashi kabi ma’nolarni ham anglatishi mumkin. O‘zbek tilidagi “yemoq” esa ovqat iste’mol qilish bilan birga, birovning haqini o‘zlashtirish, dashnom eshitish, zarba olish, azob chekish, yemirilish, zanglash, javobgarlikka tortilish kabi ko‘plab ma’no sohalarida ishlatiladi.

Polisemiya va ma’no kengayishi masalasi leksik semantika, kognitiv tilshunoslik, tarjimashunoslik hamda chet tilini o‘qitish metodikasi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bir so‘zning turli kontekstlarda qanday ma’no kasb etishini aniqlash o‘quvchiga matnni to‘g‘ri tushunishga, tarjimonga esa mos ekvivalentni tanlashga yordam beradi. Shu jihatdan ‘떡다’ va “yemoq” fe’llarining qiyosiy tahlili nafaqat ikki tilning lug‘aviy tizimini, balki ularda aks etgan madaniy tafakkur va konseptual dunyoqarashni ham ochib beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi koreys tilidagi ‘떡다’ va o‘zbek tilidagi “yemoq” fe’llarining lug‘aviy ma’nolarini qayta tartibga solish, ularning ma’no kengayish yo‘nalishlarini aniqlash hamda o‘xshash va farqli jihatlarini qiyosiy-semantik asosda yoritishdan iborat. Tadqiqotda izohli lug‘atlar, nutqiy misollar va kognitiv semantika yondashuvlariga tayanilgan holda ma’no ko‘chishining asosiy mexanizmlari tahlil qilinadi.

‘떡다’ fe’lining lug‘aviy-semantik xususiyatlari

Koreys tilidagi ‘떡다’ fe’lining markaziy ma’nosi oziq-ovqat yoki ichimlikni og‘iz orqali qabul qilib, organizm ichiga o‘tkazish jarayonini bildiradi. Masalan, ‘밥을 먹다’ - ovqat yemoq, ‘사과를 먹다’ - olma yemoq kabi birikmalarda fe’l bevosita jismoniy harakatni ifodalaydi. Bu ma’no fe’lning semantik asosi bo‘lib,

boshqa ko‘plab qo‘llanishlar aynan shu markazdan metaforik yoki metonimik yo‘l bilan kengayadi.

‘떡다’ning birinchi kengayish yo‘nalishi ichki qabul qilish va o‘zlashtirish konsepti bilan bog‘liq. Koreys tilida ‘마음을 떡다’ birikmasi so‘zma-so‘z “ko‘ngilni yemoq” emas, balki “qaror qilmoq, niyat qilmoq, ko‘ngilga tugmoq” ma’nosini bildiradi. Bu yerda jismoniy qabul qilish ruhiy qarorni ichki holat sifatida qabul qilishga ko‘chirilgan. Demak, ovqatni tanaga kiritish modeli ongda qaror yoki niyatni mustahkamlash modeli bilan bog‘lanadi.

Ikkinchi yo‘nalish yosh, vaqt va tajribani o‘zlashtirish bilan aloqador. ‘나이를 떡다’ birikmasi “yosh yemoq” tarzida tarjima qilinmaydi, balki “yoshi ulg‘aymoq”, “yoshga to‘lmoq” ma’nosini beradi. Bu holatda vaqt inson tomonidan bevosita iste’mol qilinadigan narsa emas, ammo hayot tajribasi inson ichki dunyosiga singib boradigan jarayon sifatida tasavvur qilinadi. Shu sababli koreys tilida vaqt va tajriba ham ‘떡다’ fe’li orqali ifodalanishi mumkin.

Uchinchi yo‘nalish ijtimoiy baho va tashqi ta’sirni qabul qilish bilan bog‘liq. Koreys tilidagi ‘욕을 떡다’ iborasi “haqorat eshitmoq”, “tanqidga uchramoq” ma’nolarida qo‘llanadi. Bunda subyekt faol iste’mol qiluvchi emas, balki tashqi salbiy ta’sirni qabul qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan ‘떡다’ fe’li ayrim hollarda passiv yoki majhul holatni, ya’ni kishining o‘zi xohlamagan tarzda salbiy munosabatga duchor bo‘lishini ifodalaydi.

To‘rtinchi yo‘nalish moddiy singish va ta’sir o‘tkazish bilan bog‘liq. Koreys tilida ‘기름 먹은 종이’ - “moy singgan qog‘oz”, ‘풀이 잘 떡다’ - “ohor yaxshi singmoq”, ‘칼이 잘 떡다’ - “pichoq yaxshi o‘tmoq/kesmoq” kabi birliklarda ‘떡다’ fe’li predmetning boshqa moddani o‘ziga singdirishi yoki vositaning materialga ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Bu ma’no ham “ichiga olish” konseptidan kelib chiqqan bo‘lib, ovqat iste’moli modeli jonsiz predmetlar holatiga ko‘chirilgan.

Beshinchi yo‘nalish natija, foyda, zarar va sarf bilan bog‘liq. ‘이익을 떡다’ foyda olishni, ‘돈이 많이 떡다’ ko‘p pul ketishini, ‘한 골을 떡다’ esa sport o‘yinlarida gol o‘tkazib yuborishni anglatishi mumkin. Shu sabab ‘떡다’ fe’li

koreys tilida faqat ijobiy qabul qilishni emas, balki yo‘qotish, sarflanish yoki salbiy natijaga duch kelishni ham ifodalash imkoniyatiga ega.

Shuningdek, ‘떡다’ ayrim fe’llardan keyin kelib, murakkab fe’l yoki yordamchi fe’lga yaqin vazifani bajaradi. Masalan, ‘잊어떡다’ - unutib yubormoq, ‘써떡다’ - foydalanib qolmoq, ‘팔아떡다’ - sotib yubormoq kabi birliklarda ‘떡다’ning dastlabki leksik ma’nosi susayadi va harakat natijasini, undan foydalanish yoki uni yakunlab yuborish ma’nosini kuchaytiradi. Bu hodisa koreys tilidagi fe’l birikmalarining semantik moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

“Yemoq” fe’lining lug‘aviy-semantik xususiyatlari

O‘zbek tilidagi “yemoq” fe’lining asosiy ma’nosi ham oziq-ovqatni iste’mol qilish, ovqatlanish harakatini bildiradi. “Non yemoq”, “osh yemoq”, “meva yemoq” kabi birikmalarda fe’l aniq predmet bilan kelib, moddiy iste’mol jarayonini ifodalaydi. Bu ma’no o‘zbek tilida ham fe’lning semantik markazi sanaladi va boshqa ma’nolar aynan shu markazdan kengayadi.

“Yemoq” fe’lining kengaygan ma’nolaridan biri o‘zlashtirish yoki nohaq egalik qilish bilan bog‘liq. “Birovning haqini yemoq”, “davlat mulkini yemoq”, “pora yemoq” kabi iboralarda yemoq ovqat iste’mol qilishni emas, balki moddiy yoki ma’naviy jihatdan birovga tegishli narsani o‘zlashtirishni bildiradi. Bu semantik ko‘chishda ovqatni o‘zlashtirish modeli mol-mulkni egallash modeliga o‘tgan.

Ikkinchi muhim yo‘nalish zarar ko‘rish va salbiy ta’sirga uchrash ma’nosidir. “Tayoq yemoq”, “musht yemoq”, “tarsak yemoq”, “gap yemoq”, “dashnom yemoq” kabi birliklarda subyekt faol harakat bajaruvchi emas, balki tashqi zarba yoki tanbehni qabul qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Bunday iboralarda “yemoq” fe’li koreys tilidagi ‘욕을 떡다’ yoki ‘주먹을 떡다’ kabi birliklar bilan semantik jihatdan yaqinlashadi.

Uchinchi yo‘nalish ruhiy holat va ichki kechinmalar bilan bog‘liq. “G‘am yemoq”, “azob yemoq”, “ich-etini yemoq” kabi ifodalarda “yemoq” insonning ruhiy iztirobi, xavotiri yoki ichki siqilishini bildiradi. Bunda tashqi ovqatlanish

harakati ichki ruhiy yemirilish, ya'ni psixologik holatning kuchli ta'siri sifatida talqin qilinadi. O'zbek tilida bu turdagi iboralar obrazlilik va emotsional bo'yoqdorlikka ega.

To'rtinchi yo'nalish yemirilish, chirish yoki moddaning buzilishi bilan bog'liq. "Temirni zang yebdi", "kitobni qurt yebdi", "daraxtni hasharot yegan" kabi gaplarda fe'l jonsiz predmet yoki hayvon-hasharot ta'siri natijasida yuzaga kelgan yemirilishni bildiradi. Bu ma'no ham asosiy iste'mol konseptidan kelib chiqadi, biroq subyekt ko'pincha inson emas, balki tabiatdagi ta'sir qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Beshinchi yo'nalish frazeologik birliklarda ko'rinadi. Masalan, "tazirini yemoq" - qilmishining jazosini tortmoq yoki saboq olmoq, "yemagan somsaga pul to'lamoq" - qilmagan ish uchun javobgar bo'lmoq, "boshini yemoq" - kimningdir halokatiga sabab bo'lmoq kabi iboralar "yemoq" fe'lining to'g'ridan-to'g'ri lug'aviy ma'nosidan uzoqlashgan holda, o'zbek xalq tafakkuridagi obrazli ifoda imkoniyatlarini namoyon qiladi.

### **Ma'no kengayishining qiyosiy tahlili**

Koreys tilidagi '떡다' va o'zbek tilidagi "yemoq" fe'llari semantik markaz jihatidan bir xil: har ikkisi ham oziq-ovqatni iste'mol qilish harakatini bildiradi. Shuning uchun ularning ko'p ma'nolilik tizimida "qabul qilish", "ichkariga o'tkazish", "o'zlashtirish" va "ta'sirga uchrash" kabi umumiy konseptual yo'nalishlar mavjud. Biroq ushbu yo'nalishlarning har bir tilda namoyon bo'lish shakli bir xil emas.

Birinchi umumiylik shundaki, ikkala tilda ham yeyish harakati moddiy iste'moldan mavhum qabul qilishga ko'chadi. Koreys tilidagi '마음을 떡다' qaror qabul qilishni bildirsa, o'zbek tilidagi "g'am yemoq" ruhiy iztirobni ichki holat sifatida ifodalaydi. Har ikkala holatda ham insonning ichki dunyosi "ichga olish" modeli orqali tasvirlanadi. Biroq koreys tilida bu model ko'proq qaror va niyatga, o'zbek tilida esa ko'proq g'am, azob va xavotirga bog'lanadi.

Ikkinchi umumiylik ijtimoiy salbiy ta'sirni qabul qilish bilan bog'liq. '욕을 먹다' va "gap yemoq" birliklari turli tillarga mansub bo'lsa-da, ularning semantik asosida bir xil obraz yotadi: tanbeh yoki haqorat inson tomonidan xuddi tashqi narsa kabi qabul qilinadi. Bu yerda fe'ning agentivligi susayadi, subyekt esa salbiy ta'sirni boshidan kechiruvchi shaxs sifatida ko'rinadi.

Uchinchi umumiylik nohaq o'zlashtirish ma'nosida namoyon bo'ladi. Koreys tilidagi '뇌물을 먹다', '공금을 먹다' kabi birliklar o'zbek tilidagi "pora yemoq", "haqqini yemoq", "davlat mulkini yemoq" iboralari bilan yaqin ma'nodoshdir. Bu o'rinda "yeyish" harakati ijtimoiy jihatdan qoralanadigan o'zlashtirish, ya'ni birovning haqqini ichki mulkka aylantirish ma'nosiga ko'chadi.

Farqli jihatlardan biri shundaki, koreys tilida '먹다' fe'li ayrim jonsiz predmetlar va vositalar ta'sirini ifodalashda kengroq qo'llanadi. Masalan, '칼이 잘 먹다' birikmasida pichoqning yaxshi kesishi, '풀이 잘 먹다' birikmasida esa ohorning matoga yaxshi singishi nazarda tutiladi. O'zbek tilida bunday holatlarda odatda "o'tmoq", "kesmoq", "singmoq" kabi boshqa fe'llar ishlatiladi. Demak, koreys tilida '먹다' fe'lining instrumental va fizik ta'sir sohasidagi qo'llanishi nisbatan faolroqdir.

Yana bir farq shundaki, koreys tilida '먹다' fe'li murakkab fe'llar tarkibida mahsuldor qo'llanadi. '잊어먹다', '써먹다', '팔아먹다' kabi birliklarda u asosiy fe'lga qo'shimcha semantik rang beradi. O'zbek tilida esa "yemoq" bunday grammatiklashgan yordamchi fe'l vazifasida faol ishlatilmaydi; u ko'proq frazeologik birikmalar tarkibida obrazli ma'no hosil qiladi. Shu sababli koreys tilida '먹다'ning grammatik-semantik imkoniyati, o'zbek tilida esa "yemoq"ning frazeologik-obrazli imkoniyati kuchliroq namoyon bo'ladi.

Tarjima jarayonida ushbu farqlar alohida e'tibor talab qiladi. Chunki '먹다'ning har bir qo'llanishi o'zbek tiliga "yemoq" bilan tarjima qilinavermaydi. Masalan, '나이를 먹다' – "yosh yemoq" emas, balki "yoshi ulg'aymoq"; '돈이 많이 먹다' – "pul ko'p yedi" emas, balki "ko'p pul ketdi"; '칼이 먹다' – "pichoq yedi" emas, balki "pichoq o'tdi/kesdi" tarzida beriladi. Xuddi shuningdek, o'zbek tilidagi

“azob yemoq” yoki “ich-etini yemoq” birliklari ham koreys tiliga kontekstga qarab boshqa fe'llar bilan tarjima qilinishi mumkin.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, koreys tilidagi '먹다' va o'zbek tilidagi “yemoq” fe'llari dastlab ovqat iste'mol qilish ma'nosiga ega bo'lsa-da, har ikki tilda ularning semantik imkoniyatlari ancha kengaygan. Masalan, koreys tilidagi '밥을 먹다' va o'zbek tilidagi “osh yemoq” birliklarida ovqat iste'mol qilish asosiy semantik markazni tashkil etadi. Biroq ruhiy holatni ifodalashda bu ikki til o'rtasida farqli jihatlar ko'zga tashlanadi. Koreys tilidagi '마음을 먹다' birikmasida “ichga olish” modeli qaror qabul qilish, niyat qilish ma'nosiga bog'lansa, o'zbek tilidagi “g'am yemoq” birikmasida bu model ruhiy kechinma, tashvish va iztirobni ifodalashga xizmat qiladi.

Salbiy tashqi ta'sirni ifodalashda ham ikki tilda ma'lum o'xshashlik mavjud. Masalan, koreys tilidagi '욕을 먹다' va o'zbek tilidagi “gap yemoq” birliklarida tanbeh, haqorat yoki dashnom tashqi ta'sir sifatida qabul qilinadi. Bunda subyekt faol harakat qiluvchi emas, balki salbiy munosabatga duchor bo'luvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Nohaq o'zlashtirish ma'nosida esa koreys tilidagi '뇌물을 먹다' va o'zbek tilidagi “haqqini yemoq” birliklari o'zaro yaqin semantik asosga ega. Har ikki holatda ham “yeyish” harakati ijtimoiy jihatdan qoralanadigan o'zlashtirish, ya'ni noqonuniy yoki adolatsiz egallash ma'nosiga ko'chgan.

Fizik ta'sirni ifodalashda esa tillar o'rtasidagi farq yanada yaqqol ko'rinadi. Koreys tilida '칼이 잘 먹다' birikmasida '먹다' fe'li vositaning materialga ta'sir ko'rsatishini, ya'ni pichoqning yaxshi kesishini bildiradi. O'zbek tilida esa bu ma'no “yemoq” fe'li bilan emas, balki “o'tmoq”, “kesmoq” kabi boshqa fe'llar orqali ifodalanadi. Demak, koreys tilida '먹다' fe'lining semantik kengayishi ayrim hollarda jonsiz predmetlar va ularning fizik ta'siri doirasiga ham ko'chgan bo'lsa, o'zbek tilida bunday holatlar boshqa leksik vositalar orqali beriladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, '먹다' va “yemoq” fe'llarining ma'no kengayishida bir necha kognitiv mexanizm faol ishtirok etadi. Birinchisi - metaforik ko'chish. Bunda jismoniy yeyish harakati ruhiy, ijtimoiy yoki mavhum jarayonlarni

ifodalashga xizmat qiladi. ‘마음을 먹다’ va “g‘am yemoq” birliklari aynan shu mexanizmga asoslanadi.

Ikkinchi mexanizm metonimik ko‘chishdir. Masalan, ovqatni iste‘mol qilish natijasida uni o‘zlashtirish jarayoni boshqa sohalarga ko‘chadi: “pora yemoq”, “haqqini yemoq”, ‘이익을 먹다’ kabi birliklarda yeyish o‘zlashtirish natijasini bildiradi. Bu yerda harakatning o‘zi emas, uning oqibati - egalik qilish yoki ichki mulkka aylantirish markazga chiqadi.

Uchinchi mexanizm subyekt va obyekt munosabatining o‘zgarishidir. Asosiy ma’noda subyekt faol, obyekt esa iste‘mol qilinuvchi narsa hisoblanadi. Kengaygan ma’nolarda esa subyekt ko‘pincha ta’sirga uchrovchi shaxsga aylanadi: ‘욕을 먹다’, “gap yemoq”, “tayoq yemoq” kabi birliklarda kishi salbiy ta’sirni qabul qiluvchi sifatida tasvirlanadi. Bu holat ko‘p ma’nolilik tizimida agentivlik darajasining pasayishini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi mexanizm grammatiklashuv va frazeologizatsiyadir. Koreys tilida ‘먹다’ murakkab fe’llar tarkibida grammatiklashishga moyil bo‘lsa, o‘zbek tilida “yemoq” ko‘proq frazeologik birliklarda mustahkamlanadi. Natijada koreys tilidagi semantik kengayish ko‘pincha fe’l birikmalari orqali, o‘zbek tilidagi kengayish esa obrazli iboralar orqali yuzaga chiqadi.

Demak, ikki tilda ham ma’no kengayishi tasodifiy emas, balki inson tanasi, kundalik tajriba, ijtimoiy munosabat va madaniy tafakkur bilan bog‘liq konseptual modellar asosida shakllanadi. “Yeyish” harakati inson tajribasidagi eng asosiy biologik jarayonlardan biri bo‘lgani uchun u mavhum va murakkab jarayonlarni ifodalashda qulay semantik tayanch vazifasini bajaradi.

Xulosa

Koreys tilidagi ‘먹다’ va o‘zbek tilidagi “yemoq” fe’llarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikkala birlik ham oddiy ovqat iste‘mol qilish ma’nosidan boshlab juda keng semantik maydonga ega bo‘lgan ko‘p ma’noli fe’llardir. Ularning markaziy ma’nosi bir xil bo‘lsa-da, kengaygan ma’nolar tizimi har bir

tilning grammatik tuzilishi, milliy-madaniy tafakkuri va nutqiy an'analari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan.

'떡다' fe'li koreys tilida jismoniy iste'moldan tashqari, niyat qilish, yoshga to'lish, tanqidga uchrash, moddiy singish, vositaning ta'siri, foyda olish, zarar ko'rish va murakkab fe'l tarkibida qo'shimcha semantik ma'no berish kabi vazifalarni bajaradi. Ayniqsa uning '잊어떡다', '써떡다', '팔아떡다' kabi birliklarda qo'llanishi koreys tilida bu fe'lning grammatiklashuv imkoniyati yuqoriligini ko'rsatadi.

O'zbek tilidagi "yemoq" esa asosiy iste'mol ma'nosidan tashqari, bironing haqini o'zlashtirish, tanbeh yoki zarba qabul qilish, ruhiy iztirob chekish, yemirilish, zanglash va frazeologik obraz yaratish kabi ma'nolarda faol ishlatiladi. "Gap yemoq", "tayoq yemoq", "azob yemoq", "haqqini yemoq", "tazirini yemoq" singari birliklar o'zbek tilida ushbu fe'lning emotsional va frazeologik salohiyati kuchli ekanligini tasdiqlaydi.

Qiyosiy nuqtayi nazardan qaralganda, ikki tilda ham "yeyish" konsepti qabul qilish, o'zlashtirish va ta'sirga uchrash kabi umumiy semantik modellarga asoslanadi.

Farqli tomoni shundaki, koreys tilida '떡다'ning fizik ta'sir va yordamchi fe'lga yaqin qo'llanishlari nisbatan keng, o'zbek tilida esa "yemoq"ning obrazli va emotsional frazeologik qo'llanishlari kuchliroqdir. Bu holat tarjima, lug'at tuzish va koreys tilini o'zbek auditoriyasiga o'rgatish jarayonida alohida hisobga olinishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, '떡다' va "yemoq" fe'llarining ma'no kengayishi inson tajribasining tilga ko'chish jarayonini yaqqol ko'rsatadi. Mazkur fe'llarni qiyosiy o'rganish ikki tilning semantik tizimini chuqurroq anglashga, ko'p ma'noli so'zlarni tarjima qilishda aniqlikka erishishga ҳамда koreys va o'zbek tillari o'rtasidagi lingvomadaniy munosabatlarni yanada to'liq yoritishga xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
2. 국립국어원. 표준국어대사전. - Seoul: National Institute of Korean Language.
3. 연세대학교 언어정보연구원. 연세 한국어사전. - Seoul: Doosan Donga, 1998.
4. Mirtojdiyev M. O'zbek tilida polisemiya. — Toshkent: Fan, 1984.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. — Jizzax: Sangzor, 2006.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
7. Geeraerts D. Theories of Lexical Semantics. — Oxford: Oxford University Press, 2010.
8. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.
9. Cruse D. A. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. — Oxford: Oxford University Press, 2000.
10. Taylor J. R. Linguistic Categorization. — Oxford: Oxford University Press, 2003.